



Jadidchilik harakati va uning mohiyati. Turkistondagi taniqli jadidlar hayoti va ularning mustaqillik yo'lida amalga oshirgan ishlari tahlili

Ro'zimov Umidjon Zaripboy o'g'li

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy – Iqtisodiy

fanlar fakulteti 233-Tarix guruhi talabasi

rozimovu7@gmail.com

Annonatsiya: Ushbu maqolada Buyuk ajdodlarimiz hisoblanmish Jadidlar hayoti va Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, bu harakatning Turkiston o'lkasida tutgan o'rni hamda Jadidchilik harakatiga qarshi kuchlarning paydo bo'lishi, o'lkada jadidlar tamonidan asos solingan yangi maktablar hamda ruslar tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem maktablari va ular o'rtasidagi asosiy farq tafovutlar haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Jadidlar, Turkiston. Qrim. Bog'chasaroy, Ismoil Gaspirali, Bebudiy, Avloniy, Fitrat, Xorazm, Buxoro amirligi

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь наших великих предков – джадидов, возникновение джадидского движения, его роль в Туркестанском крае, а также появление сил, противостоящих этому движению. Кроме того, вы узнаете о новых школах, основанных джадидами, и русско-туземных школах, созданных русскими, а также об основных различиях между ними.

Ключевые слова: джадиды, Туркестан, Крым, Бахчисарай, Исмаил Гаспринский, Бехбуди, Авлоний, Фитрат, Хорезм, Бухарский эмират.



Abstract: This article explores the lives of the Jadids, who are considered our great ancestors, the emergence of the Jadid movement, its role in the Turkestan region, and the appearance of forces opposing this movement. Additionally, you will learn about the new schools founded by the Jadids and the Russian-native schools established by the Russians, as well as the key differences between them.

Keywords: Jadids, Turkestan, Crimea, Bakhchisarai, Ismail Gasprinski, Behbudi, Avloni, Fitrat, Khorezm, Bukhara Emirate.

INTRODUCTION. Tarixdan bizga ma'lumki, o'kamizda yani Turkiston o'lkasida Jadidlar faoliyati asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlari muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidchilik harakati aynan shu davrda nafaqat Turkiston balki, Kavkaz, Tatariston, Qrim va shu kabi boshqa o'lkalarda ham vujudga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda Turkiston o'lkasi Rossiya Imperiyasi tomonidan protektarat davlatga aylantirilgan edi. Madaniyat va Ta'lim sohasida deyarli hech qanday yangilik va islohatlar amalga oshirilmayotgan bir davrda, Turkistonga Mahmudxo'ja Behbudi, Abdirauf Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi jadidlar kerak edi. Bu jadidlarning asosiy maqsadi xalq savodini chiqarish orqali mamlakat aholisini birlashtirish va Savet davlatidan ajralgan holda mustaqil davlat tuzish edi. Ushbu maqolada Jadidlar Faoliyati va Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ularning o'lkada olib borgan ishlarini turli yo'sinlarda tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

LITERATURE REVIEW. Jadidlar davrini o'rganishda ushbu davrda, keyinchalik boshqa adiblar tomonidan yozilgan asarlarga yuzlandik. Jumladan Jadidlar to'g'risida bitilgan Nisratulla Naimovning "Buxoro Jadidlari", Abdurashidov Zaynobiddin "Mahmudxo'ja Behbudi", O.Oltinbekning "Abdulla Avloniy" kabi asarlardan foydalanilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan siyosiy



vaziyatda xalqqa jadidlar singarima'rifatparvarlar kerak edi. Shu tariqa siyosiy maydonga Jadidlar kirib kela boshladi.

ANALYSIS AND RESULTS

Jadid so'zi arabchadan tarjima qilinganda "yangi" dega ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namayondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa Jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda ziyolilar mahaliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganini xis etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushinib yetganlar¹. Jadidchilik harakati ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixida muhim o'rin egallaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cho'lpon, Saidnosir Mirjalolov va boshqalar mahalliy xalqni milliy istiqlol bayrog'i ostida birlashtirish va hokimiyatni qo'lga olib, milliy o'zbek davlatini barpo etish yo'lidagi ilk qadamni amalga oshirganlar.² Endi jadidlar hayotiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Ismoil Gaspirali – 1883-yil o'zi asos solgan va Bog'chasaroyda chop ettirgan "Tarjimon" gazetasi vositasida xalqni manaviy jihatdan uyg'otdi va o'shandan buyon ijtimoiy hayotni yangilash yo'lida g'ayrat va muhabbat bilan mehnat qilgan. Islom azaldan 2 narsaga – ma'rifat va ibodatga tayanadi. Shuning uchun musulmonlar istiqomat qiladigan hamma joyda maqsad va maktab bor deydi- Ismoil Gaspirali. Bu maktablar avvaldan bor edi, lekin keyinchalik ularni isloh qilishga tog'ri keldi. Bu masala bo'yicha I. Gaspirali o'z rejalarini amalga oshirishga kirishgan va 1884- yilda Bog'chasaroyda ilk jadid maktabini ochgan. Keyinchalik bu maktabning dovrug'i boshqa hududlarga xususan, Turkiston o'lkasiga ham yetib bordi. I. Gaspirali o'z yurtida usuli Jadid maktablarini takomillashtirib olganidan so'ng, musulmonlar yashaydigan boshqa hududlarda ham ushbu maktablarni

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

² Irzayev Bahrom, "Turkiston jadidlarining Ko'mak tashkiloti" Toshkent – 2016. 3-5 betlar.



joriy etishga kirisha boshladi. Uning fikricha barcha musulmonlarni qaloqlikdan chiqarishning yo'li maorif, o'qitish usulini yangilash edi. I. Gaspirali 1891 – yilda Rossiya Ichki Ishlar vaziri tomonidan V.V.Vashkenich boshchiligida tuzilgan kamissiyaga zudlik bilan kerakli ma'lumotlar, talab va istaklar bildirilgan axborotnoma tayyorlab, taqdim qiladi. 1892 – yili esa ushbu axborotnomaning bir nusxasini Turkiston General Gubernatori A.B. Vrevskiyga yo'llaydi. General-gubernator esa maktubni o'rganib chiqib, uni rad etadi. Bu Turkiston o'lkasida ham Jadidchilik harakatining asta sekin kurtak otayotganidan dalolat berardi.³ XX arning boshlarida Turkistonda ham taraqqiyparvarlar harakat asta sekin rivojlana boshladi. Bu davrdagi taraqqiyparvarlarga misol tariqasida Mahmudxo'ja Behbudiyga to'xtalib o'tsak. Mahmudxo'ja Behbudiy 1874 – yilning 30 – yanvarida payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. 1893 – yilda onasi va 1894 – yilda otasi vafot etgan. Otasi vafotidan biroz avval uylangan Behbudiy 4 o'g'il, bir qiz ko'rgan. 18 yoshga kirganda Behbudiy madrasa ta'limini tugatdi Samarqand viloyati Chashmaob volostida qozilik qilgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshladi. Keyinchalik u shariat ilmini puxta egallab muftiy lavozimini egalladi. Behbudiy 1893 – yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan. Keyinchalik u ham Gaspirali singari jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi bilan 1903 – yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy) Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablarni tashkil qildi. Ketma – ket uning “Risolayi asbobi savod” (1904) , “Risolayi jug'rofiya umroniy” (1905), “Risolayi jug'rofiya Rusiy” (1905), “Kitobatul atfol” (1908), “Tarixi Islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo'ldi. Behbudiy 1913 yili “Samarqand” gazetasini chop qilish uchun hukumatdan ruxsat oladi. 1920 – yil 20 – avgustdan u “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. “Oyina” jurnalida millat va uning haq huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar,

³ Zaynobbiddin Abdurashidov, “ Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda Jadidchilik” Toshkent-2008. 7-9 betlar.



bahslar berib borilgan. 1911 – yilda esa uning mashhur “Padarkush” asari bosilib chiqdi. Behbudiy e’lon qilgan maqolalarning aksariyati Gasprinskiy bir umr ta’kidlagan ilm, kasb, til o’rganish va ma’rifatli bo’lishga chaqiriqlar to’g’risida edi. Gasprinskiy gazeta nima ekanligi yoki musulmonchilikda rasm kabi masalarni tushintirar ekan, Behbudiy ham huddi shu yo’l bilan o’z o’quvchilarini gazeta bilan bir qatorda ayrim ilmiy islohotlar, geografiya yer va boshqa turli mavzularni tushintirishga urindi. Bu ikkala jadid 1914 – yilning yoz oylarida Istambulda ko’rishdilar. Umuman olganda, Behbudiy nazarida Gasprinskiy "millatni uyg’otish, dunyodan, siyosat olamidan, madaniy millatlar holidan xabardor qilish uchun 35 yil mehnat qilgan har yerda musulmonlarni zamonaviy madaniyat, ilm-fan, sanoat, tijorat ishlariga va rus madaniyatiga targ’ib qilgan shaxsdir.⁴ Turkiston ma’rifatparvarlaridan yana biri bu Abdurauf Fitratdir. Abdurauf Fitrat 1886 – yilda ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda, keyin esa Mir Arab madrasasida tahsil oldi. 1904-1907 yillar u Haj safarida bo’lib Eron, Hindiston Afg’oniston mamlakatlarida sayohatda bo’ldi. 1909-1913 – yillarda Tarbiyai atfol jamiyati homiyligida Istanbulga o’qishga ketdi. U Turkistonda shug’illangan yillarda badiiy ijod bilan shug’illna boshladi. Dastlab publitsistik maqolalar yozib ‘Buxorayi Sharif’, “Turon” gazetalariga yubordi. Fitrat Istanbuldan yo’llagan maqolalarida ma’rifatparvarlik g’oyalarini ilgari surdi. Asta sekin bu g’oyalar tobora jangovor tus olib, “Munozara”, “Rahbari Donish”, “Oila”, “Hind sayyohining qissasi” singari asarlarida “Sayxa” deb atalgan to’plamdagi otashin she’rlarda o’z aksini topdi. Bu asarlar keyinchalik Buxoro, Samarqand marifatparvarlari orasida tarqatilib, munozaralarga sabab bo’ldi. Ko’p o’tmay “Buxorayi Sharif” va “Turon” gazetolari yopib qo’yildi. Ammo endi jadidchilik harakatini to’xtatib bo’lmas edi. Ayniqsa Abdurauf Fitrat va uning bir guruh safdoshlari o’qishni tugatib Buxoroga qaytganidan keyin milliy-ma’rifiy harakat qizg’in tus olib, yangi maktablar xususiy tarzda ochila boshladi. Fitrat Shaxrisabz, Karki tumanlarida bunday maktablarni tashkil qilish, ta’lim dasturlarini

⁴ Abdurashidov Zaynobiddin “Mahmudxo’ja Behbudiy” Toshkent – 2020. 3-7-98-betlar



ishlab chiqishda faol qatnashdi. Jadid hukumati ham ayni damda turli yig'inlarda, matbuotlarda Respublika hududidan rus qo'shinlarni olib chiqish va milliy armiyani shakllantirish, milliy kadrlarga rahbarlikdan keng o'rin berish va yana shu kabi boshqa talablar bilan chiqa boshladilar. Ammo barcha harakatlar bekor edi. Balsheviklar jadidlarga qarshi kurashishda hech nimadan tolmas edilar. Fitrat 1937 – yilda qamoqqa olinib, 1938 – yilda Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumanida Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlxonada millatimizning boshqa erksevar farzandlari singari otib tashlandi. Balsheviklar Fitratning jismini yo'qotgan bo'lsalar ham u yaratgan buyuk asarlarni xalq orasidan o'chirib tashlay olmadilar, endi bu asarlar badiiy merosimizning bebaxo durdonalari sifatida ardoqlanib qayta nashr qilinmoqda.⁵ Yana bir taraqqiyparvar Abdulla Avloniy 1878 – yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik to'quvchilik bilan shug'illangan. Abdulla 7 yoshida O'qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1900-yili Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili u otasidan ayriladi. 1904 – yili Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. 1907-yildan esa o'z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshlaydi. 1908 – yilga kelganda esa Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Ammo Avloniy hech tushkinlikka tushmadi 1909 – yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi. 1913 – yilda Turon jamiyati maydonga keldi. Truppaning g'oyaviy badiiy rahbari Avloniy edi. Jamoat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy truppasi sahnalishtirgan birinchi asar Behbudiyning “Padarkush” asari edi. Avloniyning harakatlari keyingi yillarda ancha rivojlandi. 1917 – yil Fevral voqaelaridan keyin Avloniy “Yashasin xalq jumhuriyati” shiori ostida “Turon” gazetasini chiqardi. Avloniyning savetlarga va ular orqali bolsheviklarga yaqinlashishi 1917-yilning iyuniga to'g'ri keladi. 1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyunigacha Hirotida bosh konsul bo'lib turadi. 1921 – yilda esa

⁵ Nusratullo Naimov, “Buxoro Jadidlari” Toshkent – 2000. 7-10 betlar.



maorif sohasiga ishga o'tadi. Abdulla Avloniy o'z yurtining rivoji uchun, xalqni ma'rifatli qilish uchun o'zining har tomonlama ishlarini amalga oshirdi. 1934-yilning 25-avgustida Abdulla Avloniy bu dunyodan ko'z yumdi.⁶ Jadidlar haqida so'z borar ekan Buxoroning atoqli farzandi Fayzulla Xo'jayev haqida gapirib o'tmasak bo'lmaydi. Fayzulla Xo'jayev 1896 yilda yetti Pushti savdogar bo'lib o'tgan Ubaydullaxo'ja oilasida dunyoga keldi. Ubaydullarxo'ja o'g'lini zamonaviy tijoratchi qilib tarbiyalash maqsadida 1907-yilda Maskvaga olib borib yetuk muallimlar tarbiyasiga topshirdi. Fayzulla bu yerda uch yil tahsil olgach Buxoroda siyosiy tizimni o'zgartirish zarurati to'g'risida muayyam fikrlar bilan qaytdi. Bu yerda Turkiyada tahsil olgan yoshlar bilan uchrashdi va Amirlikdagi maktablarni isloh qilish tizimni o'ylab topdilar. Shunday maktablardan biri shaxsan Fayzulla Xo'jayev boshchiligida uning amakisi La'tifxo'ja uyida tashkil etildi. Bu yerda Abduvohid Burxonov, Usmonxo'ja, Xamidxo'ja singari turkiyada ta'lim olgan yoshlar bolalarga tahsil berdilar. Tobora kuchayib ketayotgan jadidchilik harakatidan xavfsiragan ruslar Buxoro amirligidan ularga nisbatan chora ko'rishlarini talab qila boshladilar. Shu tariqa Jadid maktablari yopildi. Shundan keyin Jadidlar harakatning yopiq yashirin holatiga o'tdilar. Abdurauf Fitrat, Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jayev va yana bir qator jadid partiyasi rahbarlari partiyaning dasturini ishlab chiqib Buxoro amiridan siyosiy erkinlik talab qila boshladilar. Fayzulla Xo'jayev yurt tinchligi va mustaqilligi yo'lida qo'lidan kelgan har qanday ishni amalga oshirishga urindi. Hatto keyinchalik bolsheviklarga ham ochiqdan ochiq qarshi chiqqa boshladi. Oxir oqibat u Nikalay Buxarin boshliq siyosiy guruhning azosi sifatida xibsga olinib 1938 – yil martda Maskvada otib tashlandi.⁷ Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'nikmay xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqloлчаilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqloлчаilik harakatiga

⁶ O.Oltinbek "Abdulla Avloniy" Toshkent – 2022. 4-12 betlar

⁷ Nusratulla Naimov "Buxoro Jadidlari" Toshkent – 2000. 10-11 betlar.



g‘oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilishdagi sa‘y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirg‘in qilinishiga olib keldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan bo‘lsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham o‘ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o‘tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo‘lga kiritishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsalar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to‘siq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki 1917 yilda Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta‘qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning o‘zi qabul qilgan islohotlar o‘tkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920 yillarda yosh buxoroliklarning quvg‘inga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-1924). Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek quygan bo‘lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mavh qildi. Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so‘ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi.⁸

CONCLUSION. Buyuk bobolarimiz hisoblangan Jadidlarning xalqni mustaqillikka olib chiqishda, ma‘rifatli qilishda o‘rni katta. Jadidlar harakati o‘z davrida xalqimizning ma‘naviy va siyosiy uyg‘onishiga ulkan ta‘sir ko‘rsatgan tarixiy hodisalardan biri bo‘ldi. Ular faqat ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish bilan cheklanmay, mustamlakachilikka

⁸ Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam



qarshi kurashib, milliy o'zlikni saqlash uchun harakat qilishdi. Jadidlar zamonaviy maktablar ochib, matbuotni rivojlantirib, adabiyot va san'atni yangilash orqali jamiyatda islohotlar qilishga intilishdi. Ularning sa'y-harakatlari tufayli o'zbek jamiyatida yangi dunyoqarash shakllandi, ilm-fan va madaniyat rivojlandi, o'ziga xos milliy uyg'onish boshlandi. Ammo ular o'z davrida qattiq tazyiqlarga uchrab, qatag'on qilindi. Shunga qaramay, ularning orzulari bugungi kunda ro'yobga chiqmoqda. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot yo'li aynan jadidlar targ'ib qilgan g'oyalarga hamohangdir. Shunday ekan, biz jadidlarning mehnatini yodda tutib, ularning merosidan saboq olishimiz, ilm-ma'rifat va taraqqiyot yo'lida izlanishimiz lozim. Faqat shundagina ular orzu qilgan mustaqil, bilimli va taraqqiy etgan jamiyatni barpo etishimiz mumkin.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Abdurashidov Zaynobiddin "Mahmudxo'ja Behbudiy" Toshkent – 2020
2. Bahrom Irzayev "Turkiston Jadidlarining Kulmak tashkiloti" Toshkent – 2016.
3. Irzayev Bahrom, "Turkiston jadidlarining Ko'mak tashkiloti" Toshkent – 2016.
4. Nusratullo Naimov, "Buxoro Jadidlari" Toshkent – 2000.
5. O.Oltinbek "Abdulla Avloniy" Toshkent – 2022
6. Rajabov Q. Jadidlar – istiqloлчаilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam. Toshkent - 1999
7. Zaynobiddin Abdurashidov, "Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda Jadidchilik" Toshkent- 2008.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent - 2005 – yil.